

## O‘ZBEK FOLKLORSHUNOS OLIMLARINI ILMIY ISHLARIGA OID BIBLIOGRAFIYALAR

**Matmuradova Malika Isayevna**

*O‘zbekiston davlat*

*san’at va madaniyat instituti “Kutubxona-axborot  
faoliyati ” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada folklorshunoslikning asoslari qadim dunyo estetik tafakkuriga borib taqalishi, turkiy xalqlarda folklor materiallarni yozib olish bo‘yicha daslabki tajribalar XI asrdan boshlab ko‘zga tashlangani, o‘zbek folklori namunalarini to‘plash va nashr etish ishlari XIX asrning 2–yarmida boshlab rivojlangani, folklorshunos olimlar ilmiy ishlariga oid bibliografiyalar tahlil qilingan va rivojlanish taraqqiyoti o‘rganildi, folklorshunoslik bo‘yicha himoya qilingan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarning bibliografiyalarni o‘rganilda va tahlili haqidagi ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** bibliografik ko‘rsatkichlar, filologiya fanlari doktori, filologiya fanlari nomzodi, folklor, folklorshunoslik, to‘plash, yozib olish

**Annotation:** This article examines that the foundations of folklore studies date back to the aesthetic thinking of the ancient world, that the first experiences of recording folklore materials among Turkic peoples appeared from the 11th century, and that the collection and publication of Uzbek folklore samples began to develop in the second half of the 19th century. The bibliographies related to the scientific works of folklore scholars were analyzed and their development was studied. Information is also provided on the study and analysis of bibliographies of candidate and doctoral dissertations defended in the field of folklore studies.

**Keywords:** bibliographic indexes, Candidate of Philological Sciences, collecting, Doctor of Philological Sciences, folklore, folklore studies, recording.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается, что основы фольклористики восходят к эстетическому мышлению древнего мира, первые опыты записи фольклорных материалов у тюркских народов наблюдаются начиная с XI века, а сбор и издание образцов узбекского фольклора начали развиваться во второй половине XIX века. Проанализированы библиографии,

относящиеся к научным работам ученых-фольклористов, и изучены этапы их развития. Также приведены сведения об изучении и анализе библиографий кандидатских и докторских диссертаций, защищенных по фольклористике.

**Ключевые слова:** библиографические указатели, доктор филологических наук, запись, кандидат филологических наук, сбор, фольклор, фольклористика.

**Özet:** Bu makalede folklor biliminin temellerinin eski dünya estetik düşüncesine dayandığı, Türk halklarında folklor materyallerini kaydetme konusundaki ilk deneyimlerin XI. yüzyıldan itibaren görüldüğü, Özbek folklor örneklerini toplama ve yayımlama çalışmalarının ise XIX. yüzyılın ikinci yarısında gelişmeye başladığı ele alınmaktadır. Folklor araştırmacılarının bilimsel çalışmalarına ait bibliyografyalar analiz edilmiş ve gelişim süreci incelenmiştir. Ayrıca folklor alanında savunulan doktora ve bilim adayı tezlerinin bibliyografyalarının incelenmesi ve analizi hakkında bilgiler verilmiştir.

**Anahtar kelimeler:** bibliyografik göstergeler, derleme, filoloji bilimleri adayı, filoloji bilimleri doktoru, folklor, folklor bilimi, kayıt altına alma.

Folklorshunoslik turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelingan. Keyinchalik xalq xalq san'atini (xalq og'zaki ijodi, musiqa folklori, raqs, teatr, sirk kabi) o'rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlandi. Filologiya va san'atshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Folklorshunoslikning asoslari qadim dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklori folklorshunoslik uchun muhimdir. Turkiy xalqlarda folklor materiallarni yozib olish bo'yicha daslabki tajribalar XI asrdan boshlab ko'zga tashlangan. (Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallari).

O'zbek folklori naumnalarini to'plash va nashr etish ishlari XIX asrning 2–yarmida boshlab ahyon-ahyonda ko'zga tashlanib turgan. Folklor-xalq og'zaki ijodi yoshiga nisbatan, folklorshunoslik fani navqiron hisoblanadi. Xususan, o'zbek folklorshunosligining shakllanish davri XX asrning avvali deb ko'rsatilishi bejiz emas. Ayni shu davrda folklor asarlarini tizimli yozib olish, o'rganish boshlandi. Bu

vaqtlarda faoliyat yuritganlar orasidan Hodi Zarifning folklorshunosligimiz asoschisi sifatida tan olinishi shunchaki tanlov emas.

Jumladan Hodi Zarif asos solgan o'zbek folklorshunosligi maktabining Markaziy Osiyodagi yetakchi ilmiy maktablardan bir darajasida tanilishi va bugungi rivojida fidoyi fan tashkilotchisi, eposshunoslikning fundamental nazariy masalalarini yuksak ilmiy darajada hal qilgan yirik olim To'ra Mirzayevning xizmatlari benihoyat katta. Folklorning turli janrlariga bag'ishlagan monografiyalarining yartilishi "O'zbek folklori ocherklari", "O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar" nomli turkum to'plamlarning yuzaga kelishi "O'zbek xalq ijodi", "Bulbul taronalari", "Alpomish" dostonining akademik nashri kabi ulkan nashrlarning amalga oshirilishi bunga yorqin misoldir. Bu ishlarni amalga oshirishda H. Razzoqov, T. G'oziboyev, O. Sobirov, J. Qobulniyozov, X. Egamov, T. Mirzayev, K. Imomov, G' Jalolov, B. Sarimsoqov, O. Safarov, S.Ro'zimboyev, M. Jo'rayev, A. Musaqulov kabi folklorshunoslarning hissasi nihoyatda katta bo'ldi. Folklorshunoslik butun tarixini ushbu maqolada yoritib bera olmaymiz albatta, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi, baxshilarning ijodi, o'zbek xalq dostonlaridagi obrazlari, xalq og'zaki ijodining turli janrlarida himoya qilingan nomzodlik va doktorlik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyalar haqidagi bibliografiyalar tahlil qilinadi.

Jumladan 2017 yilda "XX asr o'zbek folklorshunosligi" antologiyasi kitobi nashr etilgan bo'lib, unda 57 ta folklorshunos olimlarning hayoti va faoliyati yoritilgan. Kitobda manbalar folklorshunoslarning tavallud yillari bo'yicha xronologik tartibda joylashtirilgan. Shuningdek kitobda filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan 18 ta olimning familiyasi ismi sharifi, dissertatsiyalarning mavzusi, himoya qilgan yillari xronologik tartibda berilgan. Filologiya fanlari nomzodlik dissertatsiyalarni himoya qilgan 84 ta olimning familiyasi, ismi, sharifi, dissertatsiyalarning mavzusi, himoya qilgan yillar hronologik tartibda berilgan [ 1.B.582–583]

2024 yilda X.Xamrakulovanning "XX–XXI asr O'zbek folklor-shunosligi va adabiyotshunosligiga oid dissertatsiya va avtoreferatlarning bibliografiyasi (1941–2024 yillar)":uslubiy qo'llanmasini nashrga tayyorlanib 200 nusxada chop etilgan. Ushbu uslubiy qo'llanma o'zbek folklorshunosligi, adabiyotshunosligi yo'nalishida yaratilgan mazkur bibliografiya tadqiqotchilar, magistrantlar va professor-

o‘qituvchilar uchun ilmiy yo‘nalishni belgilashda, yangi mavzular bilan ishlashda, adabiyotshunoslik va folklorshunoslik tarixini o‘rganishda amaliy yordam beradi.

Ushbu bibliografiya uch qismdan iborat bo‘lib, dastlab “Folklorshunoslikka oid dissertatsiyalar va avtoreferatlar”, “XX asrgacha bo‘lgan davr adabiy manbalariga oid dissertatsiya va avtoreferatlar”, “Yangi o‘zbek adabiyotiga oid dissertatsiya va avtoreferatlar” bo‘limlarida manbalar joylashtirilgan. Manbalar xronologik tartibda joylashtirilgan.

“Folklorshunoslikka oid dissertatsiyalar va avtoreferat” bo‘limida 1953 yildan 2024 yilgacha 246 ta hujjat aks ettirilgan. Shundan, 40 ta folklorshunoslikka oid filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyalardir.

Folklorshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha birinchi dissertatsiya 1953 yilda Tojiboy G‘oziboyev tomonidan “Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining sovet davridagi ijodi” mavzusida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan. Ilmiy rahbar buyuk folklorshunos, o‘sha paytda filologiya fanlari nomzodi Hodi Tillayevich Zarifov bo‘lgan[ 2.B.4]

Olim Hodi Zarifov Tillayevich 1953–1965 yillarda davomida T. G‘oziboyev, M. S. Saidov, R. Muhamadiyev, M.X.Qodirov, YO.Jo‘rayev, T. Mirzayevlarning filologiya fanlari bo‘yicha nomzodlik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyalarga ilmiy rahbarlik qilganlar. H. T. Zohidov 1965 yilda folklorshunoslik bo‘yicha filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Filologiya fanlari doktori H.T.Zarifov 1966 yildan T. Ochilovning ilmiy ishiga rahbarlik qilgan, shuningdek, Z. Husainovning “Osnovniye osobennosti i istochniki uzbekskix narodnix zagadok” (1967), H. Razzoqovning (1968) “O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va yumor (Farg‘ona vodiysi matreiallari asosida)”, M.S.Saidovning (1971) “O‘zbek xalq dostonlari va dostonchilik mahorati masalalari” filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyalarga ilmiy konsultant bo‘lgan.

Ushbu bibliografiyaning tahlil qilganimizda filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini H. Zarifov (1965), H.Razzoqov (1968,), S.M.Saidov (1971), M.Murodov (1975), A.M.Nabiyev (1980). K.Imamov (1986), T.Mirzayev (1986), O.Safarov (1986), B.Sarimsakov (1987), X.D.Abdullayev (1988), X. K.Egamov

(1988), M. Xakimov (1989), U. Jumanazarov (1991), N.A. Rahmonova (1991), G'. Mo'minov (1994), I.T. Yormatov (1994), A. Musaqulov (1995), M. Jo'rayev (1996), SH.G'. Shomusarov (1998), J. Yusupov (1999), S. Alimov (2000), D.O. Fayziyeva (2004), S.R. Mirzayeva (2004), M.M. Yakubbekova (2005), D.S.O'rayeva (2005), J.S. Eshonqulov (2010), SH.G. Turdimov (2011), O. Ingyong (2014) kabilar filologiya fanlari doktori, D.Z. Rajabov (2019), M.R. Rahmonova (2019), S.M. Sariyev (2019), O.S. Qayumov (2020), A.K. Saparov (2020), N. K. Achilov (2021), N.E. Sabirova (2021), M. R. Mamatqulov (2022), B.M. Rahmonov (2022), T.O. Kuchkarov (2023), Y.G'. Rahmatov (2023), O.I. Adizova (2024), kabilar (DSc), filologiya fanlari doktori dissertatsiyalari himoya qilganlar.

Filologiya fanlari doktori X. Xamrakulovning "XX–XXI asr o'zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligiga oid dissertatsiya va avtoreferatlarning bibliografiyasi (1941–2024 yillar)" : uslubiy qo'llanmasida dissertatsiyalarga ketma-ketlikda raqamlar berilmagan, yordamchi apparatlar bilan ta'minlanmagan. Kerakli manbalarni qidirib topishda foydalanuvchi qiyinchilikka tuch kelishi mumkin. Ayrim joylarda dissertatsiyaning bibliografik tavsifida avtoreferat ham berilgan bo'lib, qisqa berilib ketilgan, alohida bibliografik tavsif berilmagan, bu esa tadqiqotchi uchun ancha qiyinchilik keltirishi mumkin.

Shunindek, alohida folklorshunos olimlarning yubiley yillariga bag'ishlab bibliografik ko'rsatkichlar ham nashrga tayyorlangan va chop etilgan. Masalan, filologiya fanlari doktori, professor Oxunjon Safarov, akademik To'ra Mirzayev, filologiya fanlari doktori S. Mirzayeva, filologiya fanlari nomzodi, professor S. Yo'ldoshevalarga biobibliografik ko'rsatkichlar tuzilgan [3.B. 152–159].

Shunindek, filologiya fanlari doktori J. Yusupovning 60 yillik yubiley munosabati bilan bibliografik ko'rsatkich tuzilgan. T. Mirzayev Hodi Zarifov asarlarining bibliografiyasini tuzgan. Bibliografiyada 1957–1965 yillarda X.T. Zarifovning nashr qilingan 103 ta asarlari berilgan, materiallar xronologik tartibda joylashtirilgan [1.B. 17–22].

Xulosa qilib aytganimizda o'zbek folklorshunos olimlarini ishlariga oid bibliografiyalar folklorshunoslik yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan doktorantlarga va mustaqil tadqiqotchilarga amaliy yordam beradi degan umiddamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. XX asr ўzbek folklorshunosligi: antologiya / tuzuvchi O Tўlaboev va бошқ.–Тошкент:“Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”: Давлат илмий нашриёти, 2017.–592 б.

2. Xamrakulova X. XX –XXI asr O‘zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligiga oid dissertatsiya va avtoreferatlarning bibliografiyasi (1941–2024 yillar) : uslubiy qo‘llanma / X. Xamrakulova; mas’ul muharrir B. Mergliyev.– Toshkent: Yashil yaproq nashriyoti, 2024.–487 b.

3. Matmuradova, M.I. O‘zbek folklorshunos olimlarning ilmiy asarlariga oid bibliografik nashrlarning qisqacha tahlili / M.I. Matmuradova // Folklor namunalarini qiyosiy o‘rganish masalalari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiy.– Toshkent: Donishmand ziyo, 2025.–B.152–159.

4. Ҳоди Зариф : Ўзбек халқ ижоди.–Тошкент: Фан, 1967.– Б.17–22